



MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI (INGLIZ TILI MISOLIDA)

Mansurova Nargiza Alisher qizi

Canadian school of Tashkent Xalqaro maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshidagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishning zamonaviy usullari va ushbu usullardan foydalangan holda ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullari tasvirlangan va ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar, qo'shiqlar, boshqotirmalar

Аннотация. В этой статье описывается и предоставляется информация о современных методах формирования мировоззрения дошкольников и современных методах преподавания английского языка в сочетании с использованием этих методов.

Ключевые слова: наглядные пособия, плакаты, книги, песни, игры головоломки.

Buguni kunda davlatimiz va xalqimiz oldida yanada oliy maqsad ya'ni ozod va obod, dunyo bilan bo'ylasha oladigan mamlakatni barpo etish istagi, ehtiyoji vujudga keldi. Albatta, bunday oliy maqsadga o'z-o'zidan erishib bo'lmashligini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev chuqur anglab, barcha sohalarni rivojlantirishni yanada jadallashtirib yubordilar.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yurtimiz fuqarolari, ayniqsa yosh avlodning bunday baxtli hayot va kelajakka yuz tutishida keng dunyoqarash va yuksak ma'naviyatga ega bo'lishlari lozim deb hisoblamoqdalar. Xuddi shu masala 2017-yil 7-fevral, PF-4947 sonli qarorida ya'ni "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"da ham o'z ifodasini topgan.

Mazkur strategiyaning 70-moddasida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Zero, dunyoqarashi keng inson dono, vatanparvar, el-yurt g'ami bilan yashaydigan, o'z burchlarini chuqur his etadigan va mas'uliyatli bo'lishi tarixiy tajribalardan ham ma'lumdir. Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 30-sentyabr kuni "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 5198 sonli farmonini imzoladi.

Mazkur farmonga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviylashtirish va pedagog kadrlar salohiyatini oshirish nazarda tutilgan. Shuningdek, bugungi kun maktabgacha ta'lim tizimida mavjud bo'lgan qator kamchiliklar ham ko'rsatib o'tilgan. Ana shu muammolarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va kerakli natijalarga erishish maqsadida "Maktabgacha yoshidagi bolalar



dunyoqarashini shakllantirishning zamonaviy usullari (ingliz tili misolida)” mavzusida kerakli bilimlarga ega bo’lamiz.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning dunyoqarashi ham o’zini o’rab turgan atrof – borliqni qanday tushunishida, yaqinlari bilan munosabatida, tabiat va jamiyatga doir, u uchun mavhum tushunchalarni anglashga harakat qilishida nomoyon bo’ladi. Bularni e’tiborga olgan holda bolalar dunyoqarashini shakllantirishda avvalambor ota-onalar, kattalar ko’magi zarur. Bugungi kunda zamonaviy pedagogikada bolalar dunyoqarashini o’stirishning turli-tuman usullari, yo’llari va shakllari mavjuddir.

Bularga:

1. “Hikoya” usuli.
2. “Topishmoq” usuli.
3. “Rasmga munosabat bildir” usuli.
4. Ertaklar asosida suhbat usullarini kiritishimiz mumkin.

Bolalarga mashg’ulotlar jarayonida bir nechta hikoyalar o’qib beriladi. Bu hikoyalar mavzusi shunday tanlanadiki, u bolalar uchun avval tanish bo’lgan sodda tushunchalardan iborat lekin, tadqiqot maqsadi uchun xizmat qilishi lozim. Hikoyaning ta’sirli, qiziqarli yoki mulohazali qismlarida to’xtab biron-bir boladan uning fikri so’raladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar o’rtasida o’rganilayotgan topishmoqning mazmuni ustida ishlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shu orqali bolalar hayotdagi narsa-hodisalarning mohiyatini anglay boshlaydilar, turmushni o’rganadilar, oq-qorani, yaxshi-yomonni taniy boradilar.

Bolalarda tabiatga muhabbat uyg’otish, uni avaylab-asrashga o’rgatish ko’p jihatdan o’zbek xalq topishmoqlaridan unumli foydalana bilishga bog’liq. Chunki xalq topishmoqlari orqali bola, bir tomondan, ekologik bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, uni qiziqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar bolalarning nutqi, tovush madaniyatini tarbiyalashda, ularni so’zlashuvga o’rgatish, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga turmushda ishlatiladigan narsalar va shu narsalar tarkibiy qismlarining nomlari, sifatleri hamda ularga tegishli harakatlarning nomlari bilan tanishtirishda juda qo’l keladi.

Topishmoqlar orqali bolalar voqea-hodisalarni kuzatishga, solishtirishga hamda o’zicha xulosalagan xolda asoslashga o’rganadilar. Bu oqibat-natijada bolalar ongini rivojlantirib, mustaqilligini oshira boradi. Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, MTMlarida topishmoqdan odatda, o’yin mashg’uloti tarzida foydalaniladi va u quyidagi qismlardan tashkil topadi: - topishmoq o’yin mashg’ulotini e’lon qilish; - shartlarini tushuntirish; -topishmoqni aytish (buni yo tarbiyachining o’zi yoki topishmoq aytishuvida ishtirok qilayotgan bolalar navbatma-navbat bajarishlari mumkin); - javobini e’lon qilish; - javobni dalillash; - o’yin qatnashchilarini rag’batlantirish.

Bolalar dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan topishmoqlarini tanlashda, ularning yoshi, umumiy taraqqiyot darajasi, bola istiqomat qilayotgan 41 mintaqaning

hayvonot va o'simliklar olami, bolaning so'z boyligi, topishmoqda jumboqlanayotgan voqea, hodisa va narsaning xususiyatlariga muvofiq tushishini hisobga olish darkor.

Bolalar dunyoqarashini shakllantirish omili sifatida bizga ma'lumki, bugungi kunda talim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bolalarda ijodiy va intellektual dunyoqarashni tarkib toptirish maqsadida zamonaviy metodlar ishlab chiqilmoqda. Ularga interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, turli didaktik o'yinlarni misol qilishimiz mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar hamda tarbiyachi-pedagoglar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, tarbiyalanuvchilar tomonidan tushuncha va bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Bunday metodlarga "Aqliy hujum" strategiyasi, "Baliq skeleti" grafik organayzeri, "Bahsmunozara" strategiyasi, "BBB" grafik organayzeri, "Blitz-so'rov" metodi va boshqa kabilarni misol qilishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan mamlakatlar talim-tarbiya sohasida kreativ metodlar ham qo'llanilib kelinmoqda.

Bolalar dunyoqarashini shakllantirishda teledastur va multimediya vositalarining pedagogik imkoniyatlari Buguni davr bolalarining dunyoqarashini o'stirishda ommaviy axborot vositalaridan biri hisoblanmish televideniyeining o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. U orqali bolalarning ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy ongi yuksaladi, dunyo yangiliklaridan, fan va texnika yutuqlari, milliy qadriyatlarimizdan xabardor bo'lib boradi. O'z navbatida televideniye mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlod dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston milliy televideniyesi bu masalaga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Bolalarning aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, jismoniy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi tarbiya turlarini shakllantirish borasida yangidan-yangi teledasturlar yaratib, bolalar e'tiboriga namoyish etib kelmoqda. Ayniqsa, multi ko'rinishdagi dasturlarni bolalar zo'r qiziqish bilan tomosha qiladilar. Taqiiqotchi olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalarga ko'ra, bolalarning 100 % televideniyeidan foydalanishlarini e'tirof etganlar.

Eng quvonarli holat shuki, bir necha yildan buyon bolalar uchun alohida "Bolajon" teledasturi o'z ishini olib bormoqda. Ushbu kanal faqat bolalarga mo'ljallangan bo'lib, u ertalab 7.00 da boshlanadi va kechki 10 da yakunlanadi. Uning asosiy ruknlari quyidagilardan iborat: "Multipanarama", "Bilag'on bolajon", "Bolajon oshxonasi", "Quvnoq startlar", "ABC kids", "Sog'lom bolajon", "Mohir qo'llar", "Shaxsiy gigiyena", "Bolajon gimnastikasi", "Bravo ingliz", "Feruz va Aziza ko'rsatuvi", "Tabiatga sayohat", "Katta tanaffus", "Sirli o'rmoncha", "Ertakchi bolajonlar", "Xappiy alfabet", "Bolajonlar sahnasi", "Landi, landi", "Topqir bolajon", "Zukkolar" va boshqalar. Ushbu ruknlar juda qiziqarli olib borilmoqda. U qisqa vaqt ichida bolalarning sevimli kanaliga aylanib ulgurdi.



Telekanalda bolalarni har tomonlama: ham jismonan, ham ma'nan tarbiyalashga harakat qilinadi. Shuningdek, uning ruknlari bolaning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "ABC kids", "Bravo English" dasturlari orqali bolalar ingliz tilini o'rganadilar. Bunda bolalar turli-tuman o'yinlar, rang-barang vositalar yordamida tilni o'zlashtiradilar. Shu bois bolalar bu ko'rsatuvni bajonidil tomosha qiladilar. Ingliz tiliga oid atamalarni yod oladilar va talaffuz qilishga o'rganadilar.

ADABIYOTLAR

1. Avloniy Abdulla, Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent O'qituvchi, 1992.
2. Adilova S, Multimedia vositalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. Pedagogik ta'lim. 2001.
3. "Bolajon" tayanch dasturi, Toshkent, 2010
4. Mirziyoyev Sh. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi". 2017-yil 7-fevral, PF4947 sonli qarori.
5. Mirziyoyev Sh. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2017-yil 30-sentyabr, 5198 sonli farmoni.